

**YANGI O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMI TIZIMINI
RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN STRATEGIK DASTURLAR
VA ULARDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING O'RNI**

Turobova Zulfizar Ulug'bek qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar

fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari)

mutaxassisligining 2-bosqich magistranti

Zulfizar580@gmail.com Tel: +998905141775

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda maktab ta'limi tizimini rivojlantirishga qaratilgan strategik dasturlar va ularda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tutgan o'rnini tahlil qilinadi. Mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari nafaqat bilim berishga, balki o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy kamolotiga ham xizmat qilishi maqsad qilingan. Xalqaro standartlarga mos ta'lim tizimi yaratish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, va raqamlashtirish jarayonlari orqali ta'lim va tarbiyani integratsiyalash muhim vazifalardan biri sifatida ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ta'lim islohotlari, strategik dasturlar, raqamli texnologiyalar, xalqaro hamkorlik, uzluksiz ta'lim.

**СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ПРОГРАММЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ И РОЛЬ
ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

Туробова Зулфизара Улутбек кызы

Бухарский государственный педагогический институт Методика
преподавания социально-гуманитарных наук магистрант 2-го курса

Zulfizar580@gmail.com Tel: +998905141775

Аннотация: В данной статье анализируются стратегические программы, направленные на развитие системы школьного образования в Новом Узбекистане и роль духовно-просветительской работы в них. Образовательные реформы, реализуемые на новом этапе развития страны, направлены не только на передачу знаний, но и на духовно-нравственную зрелость учащихся. Одной из важных задач является создание системы образования, соответствующей международным стандартам, внедрение современных педагогических технологий, интеграция образования и обучения посредством процессов цифровизации.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, духовно-просветительская работа, образовательные реформы, стратегические программы, цифровые технологии, международное сотрудничество, непрерывное образование.

STRATEGIC PROGRAMS FOR THE DEVELOPMENT OF THE SCHOOL
EDUCATION SYSTEM IN NEW UZBEKISTAN AND THE ROLE OF
SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK IN THEM

Turobova Zulfizar Ulug'bek qizi

Second-Year Master's Student In The Methodology Of
Teaching Social And Humanitarian Sciences (Basis Of Spirituality)

Bukhara State Pedagogical Institute

Zulfizar580@gmail.com Tel:+998905141775

Abstract: This article analyzes the strategic programs aimed at the development of the school education system in New Uzbekistan and the role of spiritual and educational work in them. The educational reforms implemented at the new stage of the country's development are aimed not only at imparting knowledge, but also at the spiritual and moral maturity of students. One of the important tasks is the creation of an educational system that meets international standards, the introduction of modern pedagogical technologies, and the integration of education and training through digitization processes.

Key words: New Uzbekistan, spiritual and educational work, educational reforms, strategic programs, digital technologies, international cooperation, continuous education.

Kirish (Introduction)

Bugungi kunda davlat va jamiyat qurilishi hamda bosharuvida, inson hayotida milliy g'oyaga bo'lgan talab va ehtiyoj oshib bormoqda. Bu, avvalambor, jamiyat hayotida demokratik qadriyatlarning yanada mustahkamlanib borishi, insonning qadriyat sifatida islohotlarning negiziga qo'yilishi mamlakat tinchligi, farovonligi bilan uzviy bog'liq. Shu nuqtai nazardan olganda, milliy g'oya, uning mazmun-mohiyati xalqning, millatning ruhiyatidan joy olishi, buning uchun ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini kuchaytirish, ko'plab asarlar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy-ommabop risola va maqolalar chop etish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu yo'l orqali insonlarni haytida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni o'rni, ahamiyatini bilish bilan bir qatorda, ushbu faoliyatni samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlarni ko'rishimiz mumkin.

Jahon miqyosida yurtimiz haqida so'z ketganda "Yangi O'zbekiston", "Yangi O'zbekiston tajribasi" degan iboralar tilga olinmoqda. Bu mamlakatimizda keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga

qadam qo'yganidan, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e'tirofi desak hecham mubolag'a bo'lmaydi. Bular hammasi bizning yutug'imizdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

O'zbekiston xalqining ko'p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda azaldan ilm-ma'rifatga alohida e'tibor qaratilib kelganligini guvohi bo'lamiz. Imom al-Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Yassaviy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'beklarning ilm-fanga qo'shgan hissalarini butun dunyo tomonidan e'tirof etishi gaplarimizning isboti. O'sha davrlarda jamiyatda ilm-fan, san'at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o'z ijodida erishgan yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga qo'shgan hissasi barchamizni birdek faxrug'ururimizga sabab bo'lib kelmoqda. Darhaqiqat O'zbekistonda yangi uyg'onish - Uchinchi Renessans davri boshlandi. Mazkur holatni bugungi kunda mamlakatimizda, shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda ro'y berayotgan yuksalish jarayonlarida ko'rishimiz mumkin. Binobarin, mustaqillikka erishgan yillarimizning ilk davrida biz o'zimizning milliy o'zligimizni anglash, boy tarixiy-ma'naviy hamda ilmiy merosimizning asl mazmun-mohiyatini anglash va uni ro'yobga chiqarishga intilgan bo'lsak, endilikda xalqimiz jipslanib "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari"¹ g'oyasini sobit qadamlik bilan amalga oshirishga kirishdi. Bu davrda jamiyatimizda ijtimoiy tafakkurning yuksalish tendensiyasi qaror topishi, unga xos ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarning mujassamligi e'tirof etilmoqda. Prezidentimizning ilm-ma'rifatni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab chiqishlarida nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilim saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak bo'lib, ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi deb donishmandlarcha aytgan so'zlari muqaddas kitobimiz Qur'onning ilk oyatida ham "O'qing", "O'qing" deb ilm-u ma'rifatga alohida urg'u berilganligi va "Ilm"so'zining takror va takror kelganligi hamda Imom al-Buxoriy bobomizni "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay!" kabi so'zlari bu davlatning naqadar muhimligini anlatadi. Shuning uchun Prezidentimizning joriy yildagi Oliy Majlisga murojaatlaridagi nutqlarida bekorga "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!" deb uqtirib o'tmadilar. Shuning uchun ham har doim ta'lim, ilmga kata e'tibor qaratiladi. Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Benjamin Fraklinning "Hech qachon bilimga kiritilgan sarmoya zoye ketmaydi" degan fikrlari ta'limga bo'lgan ishonchi va insonlar bilimga yo'naltirilgan sarmoya orqali yaxshiroq hayotga erishishi mumkinligi haqidagi qarashlarini aks ettiradi. Xitoylik mashhur faylasuf

¹ Mirziyoyev.Sh.M. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.03.2021 yildagi PQ-5040-son

Konfutsiy bidan bir necha asrlar aytib ketgan quyidagi hikmat hozir ham juda dolzarbdir: “Agar sen xalqingni bir yil boqmoqchi bo’lsang, bug’doy ek. O’n yil boqmoqchi bo’lsang, daraxt ko’kartir. Asrlar davomia boqmoqchi bo’lsang, ilmi qil”. Demak, Yangi O'zbekistonda yoshlarni ilmi, bilimli qilish, ularni raqobatdosh kadrlar etib tayyorlash, kelajakka ishonch bilan kirib borishi uchun ustuvor ahamiyat qaratilayotgani bejiz emas. Zamonaviy yuksalish sari qadamlar ta’lim dargohlari ostonalaridan boshlanayotganining boisi ham shunda.

Ilm-ma’rifat rivojlanmagan davlat hech qachon to’laqonli davlat bo’la olmasligi bizga uzoq tarix hamda bugungi asrimizdagi yuksak taraqqiy etgan ilg’or mamlakatlar tajribasidan juda yaxshi ayon. Janubiy Amerika Respublikasining sobiq Prezidenti Nelson Mandela “Ta’lim – dunyoni o’zgartirish uchun qo’laniladigan eng qudratli quroldir” degan fikri gaplarimizning dalilidir. Darhaqiqat, ilm-ma’rifat ikki dunyo saodatidir. Ilm-ma’rifatsiz kishiga berilgan ne’matlar qiymatini anglab yetmaydi. Ilm-ma’rifat inson uchun najot. Shu bois, yurtimiz qadim-qadimdan ilm-ma’rifat markazi, sivilizatsiyalar chorrahasi bo’lib kelgan. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, ta’lim-tarbiya tizimi yoshlarni nafaqat raqobatbardosh kasb-hunarga o’rgatishi, balki ularning vatanparvarlik, ijtimoiy mas’uliyat va ma’naviy yetuklik fazilatlarini shakllantirishga ham xizmat qilishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar katta ahamiyatga ega. Turli davlatlarning ta’lim tizimlari, o’quv dasturlari va pedagogik yondashuvlari bizga yangi imkoniyatlar va g’oyalar taqdim etadi. Misol uchun, Finlyandiya ta’lim tizimida ta’lim jarayonini o’quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etishga e’tibor qaratilgan. Ushbu yondashuv, o’quvchilarning motivatsiyasini oshirishga, ijodkorligini rivojlantirishga va ma’naviy jihatdan kamolga yetkazishga yordam beradi.

Shuningdek, Osiyo davlatlarining ta’lim tizimlarida, masalan, Janubiy Korea va Singapurda ham ta’lim jarayonini raqamlashtirish va innovatsion yondashuvlar orqali ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu davlatlar ta’lim dasturlariga ma’naviy qadriyatlar va axloqiy tarbiya elementlarini muvaffaqiyatli kiritgan, natijada o’quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularga o’zaro hurmat, adolat va bag’rikenglik kabi qadriyatlarni o’rgatishga ham erishilgan. Misol uchun Finlandiya, Yaponiya, Singapur, Tayvan, Xitoy va Janubiy Koreada maktablari xizmatchilar yo’q, o’quvchilar darsdan so’ng sinf xonasini tozalashadi. Bu orqali o’quvchilarda tozalikni saqlash, balki mas’uliyat, jamoaviylik va maktabga nisbatan hurmat tuyg’usini shakllantirishga, tarbiya va intizomni saqlashga yordam beradi.

Muhammad al-Xorazmiy, Alisher Navoiy va Ibn Sino kabi mutafakkirlarimizning fikrlari ham ma’naviyat va ta’lim o’rtasidagi bog’liqlikni

ta'kidlaydi. Alisher Navoiy "Ta'limdan maqsad nafaqat bilim berish, balki insonni ma'naviy jihatdan boyitishdir"² deb ta'kidlagan. Bunday fikrlar, o'quv muassasalari o'z navbatida, yosh avlodning ma'naviy jihatdan kamol topishini ta'minlash uchun xususiy tadbirlar, konferentsiyalar va seminarlar tashkil etmoqda.

Eng asosiy ishlarimizdan biri, biz o'sha X-XII, XV asrlardagi Renessans davrini yuzaga chiqargan olimu fuзалolarimizning faqatgina ismlarini uzundan uzoq ro'yxatini sanab berishni qotiramiz. Ammo ularning qanday kitoblar yozganligiyu qanaqa kashfiyotlar qilganini tuzukroq anglamaymiz ham. Ta'limning hamma bosqichlarida talabgorlarning saviyasiga ko'ra ularni o'rgatishni yo'la qo'yish lozim. Mutafakkir allomalarning boshlang'ich maktabni qanday o'qiganliklari haqida bir qiziqib ko'raylik. Masalan, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek yoki Ali Qushchilar Qur'oni karimni o'n yoshlaridayoq yodlab olishgan. Alisher Navoiy, Bobur mirzo kabi yirik shoirlar o'smirliklarida o'z davri va o'zlaridan oldin yashab o'tgan shoirlarning 50-100 ming misra she'rlarini yod bilishgan. Demak, yodlash, bolaga yoshlikdan yodlatishga juda qattiq e'tibor qaratish zarur. Zehni o'tkir bola har qanday fanni o'zlashtirib keta oladi. Zero, Renessans davri olimlarining qomusiyliigi, ya'ni bir vaqtning o'zida fanning bir necha sohalarida yutuqlarga erishganining sabablaridan biri shudir. Darhaqiqat, o'tmishdagi buyuk zafarlar va dunyoni lol qoldirgan marralarga orzu-niyat qilish yoxud havaslanish bilangina erishib bo'lmaydi. Bular astoydil mehnat, intizom bilan o'qish, g'ayrat-shijoat bilan qo'lga kiritilishini o'zimizga va yosh avlod ongiga qayta-qayta singdirish lozim.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. So'ngi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish va modernizatsiya qilish bo'yicha qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Xususan, ta'lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi. Shu bilan birga mazkur sohada qonunchilikni tizimli yo'lga qo'yish borasida prezident Shavkat Mirziyoev "butun uzluksiz ta'lim tizimini huquqiy tartibga solishga qaratilgan yaxlit Ta'lim kodeksini ishlab chiqish payti keldi" deb ta'kidlamoqda. Yangi O'zbekistonda maktab ta'limi tizimini rivojlantirishga qaratilgan strategik dasturlar, Shavkat Mirziyoyevning ta'lim va tarbiya sohasidagi islohotlar rejalarida muhim o'rin tutadi. Bu dasturlar ta'lim sifatini oshirish,

² Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub, Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2019.-B.316

o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy jihatdan kamolotini ta'minlash, shuningdek, milliy qadriyatlarni yosh avlodga singdirishga qaratilgan.

Strategik Dasturlar

1. "Ta'limni rivojlantirish bo'yicha 2020-2025-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi". Ushbu dastur, maktab ta'limini modernizatsiya qilish, o'qitish metodlarini yangilash, va o'quv dasturlarini zamonaviy talablarga moslashtirishga qaratilgan. Bu jarayon, shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'rni va ahamiyatini oshirishga ham mo'ljallangan.

2. "Kichik yoshdagi bolalar ta'limini rivojlantirish". Maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlantirish va undagi ta'lim sifatini oshirish, shuningdek, bolalarning ma'naviy tarbiyasiga alohida e'tibor berilmoqda. Ta'lim jarayonida milliy va umumbashariy qadriyatlar o'rganilmoqda.

3. "Oliy ta'lim tizimini yangilash". Oliy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va talabalarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga qaratilgan strategiyalar. Bu dasturda ham ma'naviyat va axloqiy tarbiya masalalari muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda har bir Vatan fidoyilari, ilm-fan arboblari, tadqiqotchilar, olimlar diyorimizdagi yangi uyg'onish davrining o'ziga hos bo'lgan jihatlarini sohalar kesimida tadqiq qilishga kirishdi. Jumladan pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori X.Jabborovlar tomonidan uchinchi renessans davrining g'oyaviy, mafkuraviy, pedagogik, psixologik jihatlarini tadqiq qilindi va unda quyidagicha tahlillarni keltirish mumkin. "Uchinchi Renessans – ma'no + fikr + g'oya + harakat = Milliy g'oya!" formulasi keltiriladi. Bunda asosan mustaqillikning mustahkam himoyalash kerakligi, mazkur holat bo'yicha o'tmishdan saboq chiqarish kerakligi, masalan mustaqillikning harbiy himoyalash mumkin, ma'naviy himoyalash mumkinligi, tarixdan bizga ma'lumki biz qachon mustamlakaga tushgan bo'lsak xalqning birlashmaganligi xalqning birirlashmaganligini sababi esa, hammani birlashtiradigan g'oya ishlab chiqilmaganligi va bu g'oya odamlarning qalbiga singdirilmaganligi bo'lib chiqadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Barkamol avlod sog'lom oilaviy muhitda voyaga yetadi. Bunga erishish uchun – birinchi navbatda, ma'naviy targ'ibot-tashviqot ishlarini ota-onalar ongi, ularning farzandlariga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga yo'naltirmoq lozim. Ma'naviy targ'ibot-tashviqotda ulug' ajdodlarimizning hayot yo'li, qoldirgan merosini bir yoqlamalikka berilmay, to'g'ri va haqqoniy aks ettirmog'imiz darkor. Lekin, bunda o'tmishdagi siymolar bilan cheklanib qolmay, bugungi kun qahramonlari, ilg'or zamondoshlarimizdan o'rnak olish ham muhim ahamiyatga

ega. Toki, ular yoshlar uchun ibrat namunasi bo'lsin. ³Chunki, targ'ibot-tashviqotda faqat o'tmishdan misol keltirish bilan cheklanib qolinsa, bu – kechagi kun bilan yashash bo'ladi. Ma'naviy targ'ibot-tashviqot borasida eski davrdan qolgan quruq, siyqasi chiqqan va'zxonlikdan voz kechib, davlatimiz bugun boshidan kechirayotgan murakkab va mashaqqatli hayot haqiqatiga tayanib, jamoatchilik fikrini shakllantirishning eng zamonaviy, ta'sirchan usul-uslublaridan foydalangan holda ish olib borishni hayotning o'zi talab qilmoqda.⁴

Mamlakatimizda olib borilayotgan ma'na-viy-ma'rifiy faoliyat, avvalambor, xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy merosiga tayanadi. Zero bu meros milliy mafkura, ma'naviyatimizning mustaxdam manbaidir. Davr sinovlariga bardosh bera olmagan, o'tkinchi hodisalar hech kachon merosga aylana olmay, vaqt o'tishi bilan izsiz yo'qolib ketadi. Milliy qadriyatlar esa muayyan xalqning asl belgilarini o'zida aks ettiradi. Ma'naviy-ma'rifiy vazifalar tarkibida milliy mafkurany ongimizga singdiruvchi amaliy tarbiyani yo'lga qo'yish o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Zero, inson, uning har tomonlama uygun kamol topishi va farovonligi shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvor malakalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan ijtimoiy pedagogik islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda ilm-ma'rifatga berilayotgan alohida e'tiborning zahirida chuqur ma'no bor. Ilm-ma'rifat – bu yangi uyg'onish davrining poydevori, uning asosida esa shu yurt fuqarolarining milliy tafakkuri, milliy g'oyasi, ertangi kunga, taraqqiyotga bo'lgan ishonchi bo'lib, qaysiki, jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlab beruvchi asosiy ustuvor omillardan biridir. Ilm-fan rivojlanar ekan, nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy-madaniy sohaning ham taraqqiyoti kafolatlanadi, mazkur kafolat esa o'zida yangi renessans davrini ifoda etishiga hecham shubha yo'q. Yangi O'zbekistonda maktab ta'limi tizimini rivojlantirishga qaratilgan strategik dasturlar nafaqat bilim berish, balki ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirish orqali, jamiyatimizni yanada kuchli va barkamol avlod bilan ta'minlashga xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar

³ Baxtiyor Sh. O. Yangi o'zbekiston ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tashkiliy-uslubiy asoslari// Academic Research in Educational Sciences. ISSN: 2181-1385. Volume 4 | Issue 5 | 2023

⁴ Nazarov Q. va b. Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati. –Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2021. – B.20-21.

Strategiyasi to'g'risida"gi PF4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son.

2. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi. 30.10.2020

3. 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 02.03.2020-yildagi PF-5953-son.

4. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.

5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B.440.

6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son

7. Ta'lim to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son

8. 2022 — 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son

9. Alisher Navoiy.Mahbub ul-qulub.Toshkent:"Yangi asr avlodi",2019.- B.316

10. Nazarov Q. va b. Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati. –Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2021. – B.20-21.

11. Baxtiyor Sh. O. Yangi o'zbekiston ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tashkiliy-uslubiy asoslari// Academic Research in Educational Sciences. ISSN: 2181-1385. Volume 4 | Issue 5 | 2023

12. Bakhromovich, S. I. (2022).Dialectical and synergetic features of the development of theological and epistemological views in medieval eastern islam. European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA), - Las Palmas, Spain, Volume 3, Issue 2 February, 2022. – P. 79-83